XALQ DEPUTATLARI KATTAQO'RG'ON SHAHAR KENGASHI

Q A R O R I

2022 - yil 30 - mart VI-53-50-7-106-K/22 Kattaqo'rg'on shahar hokimligi

Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on shahar Kengashi qoshidagi "Yoshlar parlamenti vakillari maktabi"ni tashkil etish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-iyuldagi "Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6260-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yil 12-oktabrdagi "Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularni Senat va Xalq deputatlari mahalliy Kengashlari bilan hamkorligini yo'lga qo'yish hamda yangi avlod zaxira kadrlarini shakllantirib borish to'g'risida"gi KQ-272-son Qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 24-moddasiga asosan, xalq deputatlari shahar Kengashining oltinchi chaqiriq, ellik uchinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yil 12-oktyabrdagi "Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularni Senat va xalq deputatlari mahalliy Kengashlari bilan hamkorligini yo'lga qo'yish hamda yangi avlod zaxira kadrlarini shakllantirib borish to'g'risida"gi KQ-272-son Qarori ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Shahardagi yoshlarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishdagi o'rni va ta'sirini amalda ta'minlash, ularning huquqiy ongi va savodxonligini oshirish, jamiyatda yoshlarni siyosiy faol qatlamga aylantirish hamda ularning siyosiy-huquqiy bilim va ko'nikmalarini boyitish, qonunchilik va

qonun ijodkorligi jarayoniga yoshlarni jalb qilish va ularning xalq deputatlari shahar Kengashi, qolaversa parlament hayotiga daxldorligini oshirish maqsadida, xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on shahar Kengashi qoshida Yoshlar parlamenti vakillari maktabi tashkil qilinsin.

3. Xalq deputatlari shahar Kengashida tashkil etiladigan Yoshlar parlamenti vakillari maktabi to‘g‘risidagi Nizom 1 -ilovaga;

Yoshlar parlamenti vakillari maktabi a’zolarining namunaviy o‘quv rejasi 2-ilovaga;

Yoshlar ishlari agentligi shahar bo‘limi tomonidan tavsiya etilgan yosh, fidoyi va shijoatli yoshlarni xalq deputatlari shahar Kengashi deputatlariga biriktirish ro‘yxati 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin

4. Xalq deputatlari shahar Kengashi kotibiyat mudiri (N.Xakimov), Kengashning doimiy komissiya raislari hamda tegishli tashkilot rahbarlariga:

-“Yoshlar parlamenti vakillari maktabi”ni tashkil etish jarayonlarini muvofiqlashtirib borish;

-tasdiqlangan yangi avlod zaxira kadrlarini rahbarlik lavozimlariga asosiy nomzod sifatida tavsiya etilishini ta’minlash vazifalari yuklatilsin.

5. Kattaqo‘rg‘on pedagogika kolleji direktori (R.Qilichev)ga “Yoshlar parlamenti vakillari maktabi”ni a’zolarini faoliyatlarini olib borish uchun kollej binosidan o‘quv xonasi ajratish vazifasi yuklatilsin.

6. Shahar hokimligi Axborot xizmati rahbari (J.Nosirov), “Kattaqo‘rg‘on tongi” gazetasi bosh muharriri (T.Xamidov) Yoshlar parlamenti vakillari maktablari faoliyatiga aloqador ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalari hamda shahar hokimligining rasmiy veb-saytida muntazam yoritilib borilishini ta’minlasin.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining Yoshlar siyosati, xotin qizlar va gender tenglik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (D.Anziratova) hamda xalq deputatlari shahar Kengashi kotibiyati mudiri (N.Xakimov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **G. Alimova**

Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on
shahar Kengashining
2022 yil 30 martdagi
VI-53-50-7-106-K/22-son qaroriga
1-ilova

Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on shahar Kengashida tashkil etiladigan Yoshlar parlamenti vakillari maktabi to‘g‘risidagi

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on shahar Kengashi Yoshlar parlamenti vakillari maktabining maqsad va vazifalarini, uning tashkil etilishi tartibini hamda faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini belgilaydi.

2. Yoshlar parlamenti vakillari maktabi (keyingi o‘rinlarda – vakillar maktabi) o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati va Senat Kengashining, xalq deputatlari viloyat, shahar Kengashlarining qarorlariga, ushbu Nizomga va boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiradi.

3. Vakillar maktabi xalq deputatlari shahar Kengashi qarori asosida tashkil etiladigan, yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan jamoatchilik asosida tuziladigan maslahat organi hisoblanadi.

4. Vakolat muddati tugagach vakillar maktabi a’zolari vakillar maktabining yangi tarkibi shakllanguniga qadar faoliyat yuritib turadilar. Vakillar maktabi a’zolari jamoatchilik asosida faoliyat yuritishi belgilanganligi sababli, daxlsizlik huquqidan foydalana olmaydilar.

2-bob. Yoshlar parlamenti vakillari maktabining maqsad va vazifalari

5. Vakillar maktablarining asosiy maqsadi hududlarda yoshlarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishdagi o‘rni va ta’sirini amalda ta’minlash, ularning huquqiy ongi va savodxonligini oshirish, jamiyatda yoshlarni siyosiy faol qatlamga aylantirish hamda ularning siyosiy-huquqiy bilim va ko‘nikmalarini boyitish, qonunchilik va qonun ijodkorligi jarayoniga yoshlarni jalb qilish va ularning xalq deputatlari shahar Kengashi, qolaversa parlament hayotiga daxldorligini oshirishdan iborat.

6. Vakillar maktabi quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

Xalq deputatlari shahar Kengashi sessiyalari va doimiy komissiyalar majlislarida yoshlar vakillarining ishtirokini ta’minlash, ularni normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqish va qabul qilish jarayoni, parlament nazorati bilan yaqindan tanishtirish;

hududlarda yoshlar huquq va manfaatlarini himoya qilishga oid qonun hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

yoshlar tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, yoshlarga oid normativ-huquqiy hujjatlar, hududiy davlat dasturlariga takliflar ishlab chiqish;

yoshlarda vakillik organi faoliyatiga oid ko‘nikmalarni shakllantirish;

yoshlarga oid masalalar va muammolar yuzasidan o‘rganishlar olib borish va natijasi yuzasidan tegishli takliflarni xalq deputatlari shahar Kengashiga ko‘rib chiqish uchun kiritish;

nogironligi bo‘lgan, ota-ona qaramog‘idan mahrum va yetim bolalar bilan ishlash;

jamoatchilik nazoratini amalga oshirish hamda uning samaradorligini ta’minlash bo‘yicha dolzarb va aniq yo‘nalishlarni belgilash maqsadida muhokamalar o‘tkazish;

xalq deputatlari shahar Kengashi va yoshlar hamkorligini yanada mustahkamlashga qaratilgan zamonaviy yo‘nalishlarni belgilash va samaradorligini oshirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

yoshlarning, ayniqsa, ish bilan band bo‘lmaganlarning ishbilarmonlik ko‘nikmalarini rivojlantirish, ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish;

yoshlarga oid davlat siyosatini ro‘yobga chiqarishda yoshlar ishtirokini oshirish;

yoshlarning tibbiy va ekologik madaniyatini yuksaltirishga, ular o‘rtasida kitobxonlikni rivojlantirishga,

ularning intellektual, ma’naviy-axloqiy, estetik, badiiy dunyoqarashini kengaytirishga ko‘maklashish;

yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlarda faol ishtirok etish;

qonun ijodkorligi va huquqni qo‘llash amaliyotining dolzarb muammolarini yoshlar ishtirokida muhokama qilish va ularni bartaraf etishga qaratilgan takliflar tayyorlash;

yoshlarning siyosiy bilimlarini oshirish, ularda vatanparvarlik ruhini kuchaytirishda vakillik organlari bilan hamkorlik qilish;

yoshlarning parlament faoliyati bo‘yicha xabardorligini oshirish.

3-bob, Yoshlar parlamenti vakillari maktabi tarkibini shakllantirish va faoliyatini tashkil etish

7. Vakillar maktabi a’zolari xalq deputatlari shahar Kengashida 30 nafar etib belgilanib, Kattaqo‘rg‘on shahridagi turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan tashabbuskor, yuksak ma’naviyatli, mustaqil fikrlovchi, qat’iy hayotiy nuqtayi nazarga, keng dunyoqarash va chuqur bilimga ega 18-30 yoshdagilar orasidan gender tenglikni ta’minlagan holda shakllantiriladi.

Yoshlar ishlari agentligining shahar bo‘limi xalq deputatlari shahar Kengashining Yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasiga vakillar maktabi a’zoligiga qabul qilinishi uchun nomzodlarni tavsiya etadi. Doimiy komissiya nomzodlar orasidan 30 nafarini saralab olib, tasdiqlash uchun Kengash muhokamasiga kiritadi.

8. Xalq deputatlari shahar Kengashining deputatlari bir vaqtning o‘zida vakillik maktablarining a’zosi bo‘lishi mumkin emas.

9. Xalq deputatlari shahar Kengashi vakillar maktabi Kengashning tegishli qarori bilan tashkil etiladi. Shahar Kengashi tomonidan xalq deputatlari viloyat Kengashi vakillar maktabini tashkil etishda tegishli qaror chiqarilishi uchun tavsiya beriladi.

10. Vakillar maktabini boshqaruvchisi rais deb yuritiladi. Vakillar maktabi raisi 30 yoshdan katta bo‘lmagan, huquqiy va siyosiy bilimga ega, tashabbuskor va malakali bo‘lishi talab etiladi.

Rais vakillar maktabining birinchi tashkiliy yig‘ilishida a’zolar tomonidan yashirin ovoz berish yo‘li bilan saylanadi.

Raislikka nomzodlar xalq deputatlari shahar Kengashining Yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi tomonidan ko‘rsatiladi.

11. Yoshlar parlamenti vakillari maktabi faoliyatini davriy matbuot va Internet ijtimoiy tarmoqlarda muntazam yoritib borish uchun a’zolardan biriga matbuot kotibi vazifasi yuklatilishi mumkin.

12. Vakillik maktablari quyidagi asosiy ustuvor yo‘nalishlarda faoliyat olib boradi:

yoshlarning xalq deputatlari shahar Kengashi bilan doimiy hamkorligini yo‘lga qo‘yish;

yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish;

yoshlar muammolari bilan ishlash va ularning murojaatlari yuzasidan o‘rganishlar tashkil etish;

nogironligi bo‘lgan, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan va yetim bolalarni ijtimoiy himoya qilish;

yoshlarni ishga joylashtirish va ularning tadbirkorligini rivojlantirish jarayonlarini nazorat qilib borish;

hududlarda beshta muhim tashabbusni amaliyotga keng joriy qilishda faol ishtirok etish;

hududlarda iqtidorli va iste’dodli yoshlarni aniqlash va ularni rag‘batlantirib borish bo‘yicha tashabbuslar ko‘rsatish.

13. Vakillar maktabi a’zolarining vakolat muddati xalq deputatlari shahar Kengashi vakolat muddatiga teng.

14. Vakillar maktabi a’zolarining majlisi uning rahbar organi hisoblanadi.

15. Vakillar maktabi tomonidan qabul qilingan hujjatlar tavsiyaviy

xususiyatga ega bo‘ladi.

16. Vakillar maktabi a’zolarining faoliyati xalq deputatlari shahar Kengashi tomonidan muvofiqlashtirib boriladi.

17. Vakillar maktabi faoliyati uchun xalq deputatlari shahar Kengashi kotibiyati xonasidan joy ajratiladi.

18. Vakillar maktabi majlislarini o‘tkazish uchun Yoshlar ishlari agentligi shahar bo‘limi binosidan foydalaniladi.

19. Vakillar maktabi faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirib borishga xalq deputatlari shahar Kengashining Yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi mas’ul hisoblanadi.

4-bob. Yoshlar parlamenti vakillari maktabi faoliyatini yuritish tartibi

20. Vakillar maktabi a’zolarining majlislari zaruratga ko‘ra, lekin har chorakda kamida bir marta o‘tkaziladi. Vakillar maktabi a’zolarining majlislari vakillar maktabi raisi tomonidan chaqiriladi.

Zarur hollarda vakillar maktabi majlislari axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan foydalanilgan holda videokonferensiya aloqa rejimida o‘tkazilishi mumkin.

21. Vakillar maktabi a’zolarining majlisi o‘tkazilishidan kamida yetti kun avval bu haqda vakillar maktabining har bir a’zosi xabardor qilinishi shart. Xabarnomada vakillar maktabi a’zolarining majlisi o‘tkaziladigan vaqt va joy, shuningdek, taklif qilinayotgan kun tartibi ko‘rsatilishi kerak.

22. Vakillar maktabi a’zolari majlislarining qarorlari ochiq ovoz berish yo‘li bilan qabul qilinadi.

23. Vakillar maktabi tadbirlari ochiqlik va oshkoralik asosida tashkil etiladi va o‘tkaziladi.

24. Vakillar maktabi a’zolari majlisining bayonnomasi vakillar maktabi majlisida saylanadigan kotib tomonidan yuritiladi.

5-bob. Yoshlar parlamenti vakillar maktabi raisi va uning kotibi vazifalari

25. Vakillar maktabi raisi o‘z vazifalarini bajarishi davrida doimiy ish faoliyatidan ajratilmagan holda quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

o‘z vakolatiga ko‘ra yoshlarga oid masalalar bo‘yicha ko‘rib chiqilishi uchun xalq deputatlari shahar Kengashining Yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasiga takliflar kiritadi;

vakillar maktabi a’zolari majlisini chaqiradi, ularga raislik qiladi;

vakillar maktabiga kiritiladigan yoshlarga oid masalalarni tayyorlashga umumiy rahbarlik qiladi;

vakillar maktabi a’zolarining faoliyatini muvofiqlashtirib boradi va ularga vazifalarni taqsimlaydi;

ushbu Nizomda ko‘rsatilgan, qonun bilan ta’qiqlanmagan boshqa vazifalarni amalga oshiradi.

26. Vakillar maktabi kotibi:

vakillar maktabi a’zolarining majlisida qabul qilingan takliflar hamda majlislar bayonnomalarini yuritadi;

tuzilgan bayonnomalarni imzolash uchun raisga taqdim etadi hamda devonxona hujjat ishlarini yuritishni tashkil etadi;

majlis bayonnomalari ijrosini monitoring qilib boradi;

yoshlar tomonidan yuborilgan murojaatlarni qayd etib boradi va ular to‘g‘risida raisga axborot kiritadi.

6-bob. Yakunlovchi qoidalar

27. Ushbu Nizomga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish yoki Yoshlar parlamenti vakillar maktabi faoliyatini to‘xtatib turish yoxud tugatish xalq deputatlari shahar Kengashining tegishli qarori bilan amalga oshiriladi.

Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on
shahar Kengashining
2022 yil 30 martdagi
VI-53-50-7-106-K/22-son qaroriga
2-ilova

Yoshlar parlamenti vakillari maktabi a’zolarning o‘quv

REJASI

№	Ma’ruza mavzusi	O‘quv vaqti	Mas’ul
1	Oliy Majlis Senati faoliyatining huquqiy asoslari hamda tarkibini shakllantirish tartibi	Bir soat	Viloyat Kengashi deputati
2	Senat Kengashi, qo‘mitalari va komissiyalarini tashkil etish tartibi, ularning vazifalari hamda faoliyat yo‘nalishining mazmun- mohiyati.	Bir soat	Viloyat Kengashi deputati
3	Senat tomonidan qonunlarni ko‘rib chiqish, ma’qullash yoki rad etish tartibi.	45 daqiqa	Viloyat Kengashi deputati
4	Kengash huzuridagi Yoshlar parlamenti vakillari maktabining maqsad va vazifasi, faoliyatining asosiy yo‘nalishlari hamda unga a’zo bo‘lish tartibi.	45 daqiqa	Xalq deputatlari shahar Kengashi kotibiyat mudiri
5	Xalq deputatlari shahar Kengashi faoliyatining huquqiy asoslari, maqsad va vazifalari.	Bir soat	Xalq deputatlari shahar Kengashi kotibiyat mudiri
6	Qonun loyihalarini tayyorlash jarayonlari hamda qonunchilik tashabbusiga ega davlat boshqaruv organlari vakolatlari.	Bir soat	Viloyat Kengashi deputati
7	Xalq deputatlari shahar Kengashi sessiyalarini chaqirish va kun tartibidagi masalalarni muhokama etish hamda tegishli hujjatlar qabul qilish tartibi	45 daqiqa	Xalq deputatlari shahar Kengashi kotibiyat mudiri

8	Yoshlarga oid davlat siyosatining hududlarda amalga oshirilishi bo‘yicha reyting tizimining mazmun- mohiyati.	Bir soat	Yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo‘yicha doimiy komissiya
9	O‘zbekistonda yoshlar masalalari bilan shug‘ullanuvchi davlat va nodavlat tashkilotlarning vakolatlari.	45 daqiqa	
10	O‘zbekistonda xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo‘yicha olib borilayotgan ishlar tahlili.	Bir soat	
11	Yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirishning dolzarb masalalari.	Bir soat	
12	Davlat dasturlari va investitsiya dasturlariga takliflar tayyorlash tartibi.	45 daqiqa	Xalq deputatlari shahar Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi
13	Mahalliy byudjetni shakllantirish va tasarruf etish jarayonlari.	45 daqiqa	
14	Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari faoliyatini tashkil etish va unda loyihalarni amalga oshirish tartibi.	Bir soat	
15	Yoshlarni ishga joylashtirish va ularning tadbirkorligini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish masalalari.	Bir soat	
16	Qonunlarni hududlar manfaatidan kelib chiqqan holda xalq deputatlari shahar Kengashida muhokama etish, qonun loyihalari yuzasidan takliflar tayyorlash va uni vakolatli organga taqdim etish tartibi.	Bir soat	Xalq deputatlari shahar Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi
17	Deputat maqomi hamda uning huquq va majburiyatlari.	45 daqiqa	
18	Korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslari.	Bir soat	

19	Ta’lim sohasida so‘ngi 5 yil davomida amalga oshirilgan islohotlarning mazmun- mohiyati.	45 daqiqa	Xalq deputatlari shahar Kengashining ta’lim,sog‘liqni saqlash, madaniyat sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi
20	Yoshlar sog‘lig‘ini saqlash va ularni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazishning mazmun-mohiyati.	Bir soat	
21	Madaniyat sohasida olib borilayotgan islohotlar va uning ijobiy natijalari.	Bir soat	
22	Yoshlarni sportga keng jalb qilishda yaratilgan sharoitlar va imtiyozlar.	45 daqiqa	
23	Yoshlarni ijtimoiy himoyalash va yosh oilalarni uy-joy bilan ta’minlash tartibi.	45 daqiqa	
24	Nogironligi bor, yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni ijtimoiy himoya qilish maqsadida qabul qilingan me’yoriy- huquqiy hujjatlarning mazmun-mohiyati	Bir soat	
25	Hududlarda sanoat zonalarini tashkil etishning huquqiy asoslari.	45 daqiqa	Xalq deputatlari shahar Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi
26	Transport va qurilish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar tahlili.	Bir soat	
27	Kommunal sohasidagi o‘zgarishlar va aholiga xizmat ko‘rsatishning huquqiy asoslari.	Bir soat	
28	Ishsiz yoshlarga dehqonchilik bilan shug‘ullanish uchun yer maydonlari ajratish tartibi.	Bir soat	Xalq deputatlari shahar Kengashining Atrof muhitni muhofaza qilish va ekologiya masalalari bo‘yicha doimiy komissiya raisi
29	Suv xo‘jaligi faoliyati va suvdan unumli foydalanishning o‘ziga xos jihatlari.	45 daqiqa	
30	Ekologiya sohasida olib borilayotgan islohotlar va yangiliklar.	45 daqiqa	

31	O‘zbekistonda so‘ngi besh yilda axborot siyosatidagi o‘zgarishlarning mazmun-mohiyati	Bir soat	Xalq deputatlari shahar Kengashining Axborot siyosati va mahalliy davlat organlarida ochiqlikni ta’minlash masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi
32	Mahalliy davlat organlarida ochiqlikni ta’minlash borasida olib borilayotgan amaliy ishlar tahlili	Bir soat	
33	Xalq deputatlari mahalliy Kengashining Reglamenti haqida.	Bir soat	Xalq Deputatlari shahar Kengashining Reglament va deputatlik odobi masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi
34	Deputatlik odobi tushunchasi va uning mazmun-mohiyati.	45 daqiqa	
35	Parlament nazorati olib borilishining tartib-taomillari	45 daqiqa	Senat a’zosi
36	Senatorlik va deputatlik so‘rovlarini tayyorlash va yuborish tartibi hamda olingan javobni muhokama qilish tartibi.	Bir soat	Senat a’zosi, Xalq deputatlari shahar Kengashi deputati
37	Saylovchilar bilan uchrashuvlar tashkil qilish, sayyor qabullar uyushtirish va ularning muammolarini o‘rganish yo‘llari.	45 daqiqa	Senat a’zosi, Xalq deputatlari shahar Kengashi deputati
38	Ijtimoiy tarmoqlarda e’lon qilingan yolg‘on xabarlarga zudlik bilan munosabat bildirish usullari.	Bir soat	Xalq deputatlari shahar Kengashi kotibiyat mudiri, shahar hokimligi axborot xizmati rahbari
39	Yoshlar muammolarini hal etish va ularning murojaatlari yuzasidan choralar ko‘rish.	Bir soat	Xalq qabulxonasi rahbari
40	Parlament va shahar Kengashining yoshlar bilan hamkorligini yo‘lga qo‘yish mexanizmi.	Bir soat	Senat a’zosi, Xalq deputatlari shahar Kengashi kotibiyati mudiri

Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on
shahar Kengashining
2022 yil 30 martdagi
VI-53-50-7-106-K/22-son qaroriga
3-ilova

№	Biriktirilgan deputat F.I.Sh, saylov okrugi	Vakillik maktabi a’zosi F.I.Sh, tug‘ilgan yili va joyi, millati	Ma’lumoti, mutaxassicligi, partiyasi	Ish joyi va lavozimi
1.	**Abdullayev Javlonbek Azimovich 1-Sanoat**	**To‘xliv Aslbek Izzatullo o‘g‘li** 11.02.1993-yil, Kattaqo‘rg‘on shahar, o‘zbek	Oliy. 2016-y. Navoiy davlat pedagogika instituti (kunduzgi), informatika o‘qitish metodikasi	3-umumta’lim maktabi informatika fani o‘qituvchisi
2.	**Sirojidinov Xotam Samariddinovich 2-Temir yo‘l**	**Uchqunov Ravshan Uchqun o‘g‘li** 24.09.2002-yil, Kattaqo‘rg‘on shahar , o‘zbek	Tugallanmagan oliy. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Buxgalteriya hisobi va auditi	Savdo-sanoat palatasi Kattaqo‘rg‘on shahar “Tadbirkorlikka ko‘maklashish markazi direktori”
3.	**Nadjimov Furqat Komildjonovich 3-Samad Raximov**	**Xamidova Dilnoza Nosir qizi** 30.06.1997-yil Samarqand viloyati, Kattaqo‘rg‘on tumani	O‘rta-maxsus, 2016. Kattaqo‘rg‘on iqtisodiyot kolleji (kunduzgi)	Jamoatchi xodim
4.	**Xaydarova Mashxura Ostonkul-qizi 4-A.Majidiy**	**Ergashova Iroda Xolmurod qizi** 01.06.1992-yil Samarqand viloyati, Kattaqo‘rg‘on shahar, o‘zbek	Oliy. 2015 y. O‘zbekiston jismoniy tarbiya instituti, Jismoniy tarbiya	5-umumiy o‘rta ta’lim maktabi psixologi
5.	**Tairova Dilorom Sirojovna 5-Talabalar**	**Safayev G‘ayratjon Furqat o‘g‘li** 03.01.1994-yil, Kattaqo‘rg‘on shahar, o‘zbek	Oliy. 2018-y. “ Mirzo Ulug‘bek” nomidagi Samarqand davlat arxitektura va qurilish instituti, muhandislik kommunikatsiyalari qurilishi va montaji	Yoshlar ishlari agentligi Kattaqo‘rg‘on shahar bo‘limi bosh mutaxassisi
6.	**Gadayev Siddik Sarochovich 6-Mamarasul Boboyev**	**Eshpulatov Dostonjon Salim o‘g‘li** 18.04.1994-yil, Kattaqo‘rg‘on shahar, o‘zbek	Oliy. 2017-y. Samarqand Qishloq xo‘jalik instituti,Fermer xo‘jaligini boshqarish va yuritish.	Baxoriston MFY yoshlar yetakchisi

7.	**Kuldashev Javlonbek Murodovich 7-Nodirabegim**	**Shodiyev Elyorjon Erkin o‘g‘li** 22.03.1995 yil, Kattaqo‘rg‘on shahar, o‘zbek	Oliy. 2019-y. Toshkent kimyo texnologiyalar instituti, Muhandis texnolog	Baxoriston MFY yoshlar yetakchisi
8.	**Salohiy Nazokat Ikromiddin qizi 8-O.Miriy**	**Vaxobov Javlon Soxib o‘g‘li** 10.02.1993-yil, Kattaqo‘rg‘on shahar, o‘zbek	O‘rta-maxsus 2012-y. Kattaqo‘rg‘on transport kolleji (kunduzgi)	Haydarchaman MFY yoshlar yetakchisi
9.	**Sharipova Umida Tolibjonovna 9-Amir Temur**	**Amanov Sobir Bastanboy o‘g‘li** 31.10.1993-yil, Qo‘shrabot tumani, o‘zbek	2020-y. O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti	Kattaqo‘rg‘on shahar 14-sonli umumta’lim maktabi jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi
10.	**Nurnazarov Erkin Nasirovich 10-Maxtumquli**	**Sharofov Farxod Vahob o‘g‘li** 11.06.1992-yil, Narpay tumani, o‘zbek	Oliy, 2015-y. Samarqand davlat tibbiyot instituti, Oliy ma’lumot hamshira	Kattaqo‘rg‘on Abu Ali Ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi o‘qituvchisi
11.	**Kuchkarova Shaxlo Botirovna 11-Shavqiy**	**Rajabov Shaxruz Shuxrut o‘g‘li** 27.06.1994-yil Samarqand viloyati, Kattaqo‘rg‘on tumani	Oliy, 2019-y. Samarqand veterinariya meditsinasi instituti, zootexnik	Do‘stlik MFY yoshlar yetakchisi
12.	**Alimova Gavxar Zayirovna 12-Iqtisodchilar**	**Ismatov Sardor Uvaydullo o‘g‘li** 05.07.1993-yil, Kattaqo‘rg‘on shahri, o‘zbek	Oliy, 2020-yil Samarqand veterinariya meditsina instituti	Kattaqo‘rg‘on shahar hokimligi bosh mutaxassis
13.	**Baxriyev Ataman Isanovich 13-Hunarmandlar**	**Xamidov Zafarjon Oybek o‘g‘li** 27.07.1994-yil, Kattaqo‘rg‘on shahar, o‘zbek	O‘rta-maxsus. 2014-y. Kattaqo‘rg‘on shahar transport kolleji, qishloq xo‘jaligi mashina va uskunalarini ta’mirlash.	Guzalkent MFY yoshlar yetakchisi
14.	**Ishbekov Ravshan Iskandarovich 14-Zarifobod**	**Xabibullayeva Muxlisa Umidjon qizi** 20.04.2003-yil, Kattaqo‘rg‘on shahar, o‘zbek	Tugallanmagan oliy. Samarqand davlat universiteti Kattaqo‘rg‘on filiali	Talaba

15.	**Xamidov Toxir Abduraxmanovich 15-Nizomiddin Zokirov**	**Umarov G‘olibjon Nodir o‘g‘li** 07.05.1995 yil Samarqand viloyati, Kattaqo‘rg‘on shahar	Oliy, 2019 y. TATU Samarqand filiali Mutaxassisligi Kompyuter injeneringi	Kattaqo‘rg‘on shahar Raqamli texnologiyalar o‘quv markazi menejeri
16.	**Nigmatova Saboat Fayzidinovna 16-Bunyodkorlar**	**Qodirov Otabek O‘ktam o‘g‘li** 15.04.1994-yil, Kattaqo‘rg‘on shahar, o‘zbek	2016-y. Kattaqo‘rg‘on iqtisodiyot kolleji (savdo), buxgalteriya hisobi va audit	O‘rikzor MFY yoshlar yetakchisi
17.	**Abdiyeva Ugiloy Jurakulovna 17-Qo‘riqchi**	**O‘ktamov Xusniddin Qo‘chqor o‘g‘li** 16.09.1999-yil, Kattaqo‘rg‘on shahar, o‘zbek	O‘rta-maxsus 2019-y. Samarqand shahar huquqshunoslik kolleji	Islom shoir MFY yoshlar yetakchisi
18.	**Alimov Jamoliddin Abdug‘afforovich 18-Narzullo Tog‘ayev**	**Nuriddinov Jonibek Zokir o‘g‘li** 11.03.1997-yil, Kattaqo‘rg‘on shahar, o‘zbek	O‘rta maxsus, 2011-yil Kattaqo‘rg‘on Tibbiyot kolleji, Davolash ishi feldsheri	Kattaqo‘rg‘on shahar “Marvarid” sanatoriysi uqalash birodari
19.	**Qulbulov Qaxramon Norqarayevich 19-Ibn Sino**	**Muzropov Jaloliddin Ibroxim o‘g‘li** 21.03.1997-yil, Samarqand viloyati Kattaqo‘rg‘on shahar, o‘zbek	Tugallanmagan oliy. Toshkent davlat agrar universiteti (sirtqi), manzarali bog‘dorchilik va ko‘kalamzorlash	Zarafshon MFY yoshlar yetakchisi
20.	**Petrova Natalya Nikolayevna 20-Konchi**	**Yuldoshev Jasur Xamidulla o‘g‘li** 01.03.1994-yil, Kattaqo‘rg‘on tumani, o‘zbek	Oliy. 2019-yil, Navoiy davlat pedagogika instituti, ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi	Kattaqo‘rg‘on shahar 12-umumta’lim maktabining ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi
21.	**Musayev Dilshod Suyunovich 21-A.Qodiriy**	**Ishmuradov Dilshod Shavkat o‘g‘li** 04.03.1993-yil, Kattaqo‘rg‘on shahri, o‘zbek	Oliy Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti Iqtisodchi (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)	15-umumta’lim maktabi o‘qituvchisi
22.	**Xushbokov Eshonkul Melikulovich 22-Qo‘rg‘oncha**	**Raxmatov Mexriddin Nasriddin o‘g‘li** 10.06.1993-yil, Kattaqo‘rg‘on tumani, o‘zbek	Oliy. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, turizm(turlari va yo‘nalishlari bo‘yicha)	Kattaqo‘rg‘on MFY Yoshlar yetakchisi

23.	**Salimova Ozoda Yusupjonovna 23-Qoriravot**	**Ochilov Dostonbek Ulug‘bek o‘g‘li** 11.01.1993-yil, Kattaqo‘rg‘on shahar, o‘zbek	2015-y.Samarqand davlat universiteti (kunduzgi) arxeologiya	Kattaqo‘rg‘on shahar 11-ixtisoslashtirilgan davlat umumta’lim maktabi o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari
24.	**Nurmurodov Davronjon Najmiddinovich 24-Yermachit**	**Xusanova Janona Abdumalik qizi** 2001-yil Samarqand viloyati, Kattaqo‘rg‘on shahar	O‘rta maxsus 2016-y. Kattaqo‘rg‘on iqtisodiyot kolleji (kunduzgi), bank ishi	Raqamli texnologiyalar o‘quv markazi ish yurituvchisi
25.	**Niyazov Sunnatullo Gulyamovich 25-Raxima Islomova**	**Quvonov Shahzodbek Shokir o‘g‘li** 14.08.1995-yil, Kattaqo‘rg‘on shahar, o‘zbek	Tugallanmagan oliy, Samarqand davlat universiteti (sirtqi). Informatika o‘qitish metodikasi	Yoshlar ishlari agentligi Kattaqo‘rg‘on shahar bo‘limi shubasi mudiri
26.	**Xakimov Nurmurod Abdumuradovich 26-Kunjipay**	**Salimov Davlatbek Xakimjon o‘g‘li** 13.02.1995 yil, Kattaqo‘rg‘on shahar, o‘zbek	Oliy 2020-y. Samarqand davlat universiteti (kunduzgi), milliy g‘oya ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi	Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on shahar Kengashi kotibiyati bosh mutaxassisi
27.	**Tursunov Salim Xodiyevich 27-Siplon**	**Qarshiyeva Munisa Boyxo‘roz qizi** 21.09.1994-yil, Kattaqo‘rg‘on shahar, o‘zbek	Tugallanmagan oliy. Samarqand davlat universiteti, Psixologiya	7-umumta’lim maktabi psixologi
28.	**Anziratova Dilfuza Kamalovna 28-O‘rikzor**	**Mamadiyev Nodirbek Xusan o‘g‘li** 30.01.1995-yil, Kattaqo‘rg‘on shahar, o‘zbek	Oliy, 2020 y, Samarqand davlat arxitektura va qurilish instituti, injener-servis texnik	Kattaqo‘rg‘on shahar hokimligi bosh mutaxassisi
29.	**Xasanova Dilafruz Yakubovna 29-Chaman**	**Hakimova Shahrizoda Jasur qizi** 24.10.2003-yil, Kattaqo‘rg‘on shahar, o‘zbek	Tugallanmagan oliy. Samarqand davlat universiteti Kattaqo‘rg‘on filiali	Talaba
30.	**Sanayev Baxtiyor Uvaytovich 30-Alisher Navoiy**	**Sultonov Xumoyun Shuxrat o‘g‘li** 09.09.1998-yil, Kattaqo‘rg‘on shahar, o‘zbek	Tugallanmagan oliy. 2018-yildan buyon Navoiy davlat pedagogika Institutining talabasi (sirtqi), tarix o‘qitish metodikasi	2-umumiy o‘rta ta’lim maktabi tarix fani o‘qituvchisi